

VOYAGA YETMAGAN SHAXSLAR JINOYAT SODIR QILGANDA JAVOGBARLIK TURLARI

O‘rmanova Muxlisa Dilshodjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Yurisprudensiya 4-108-guruh talabasi

Telefon: +998(97) 021-04-28

muxlisaormanova13@gmail.com

Anontatsiya: bu maqolada voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir qilganlarida qonunchiligimizda belgilangan javobgarlik turlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmagan shaxslar, jarima, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlar, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish, jinoyat, huquqbuzarlik, jinoyatlar majmui.

Yoshlik – bu inson hayot davrining eng unutilmas va takrorlanmas payti hisoblanadi. Har bir inson bu davrni maroqli, mazmunli o‘tkazishi kerak deb o‘yilman. Chunki bu davrda inson qanday narsalarni o‘ziga odat qilsa, yoki ko‘nikib qolsa umr bo‘yi shunday yashaydi. Inson davri bolalik, yoshlik, o‘rta yosh va qarilik kabi bir necha bosqichlarga bo‘linadi. Bular bir – biridan yoshlariga ko‘ra farq qiladi. Shulardan yoshlik davri haqida gapirsak, bu davr ham voyaga yetganlar va voyaga yetmaganlar sinfiga ajratiladi. Voyaga yetmagan shaxsni o‘zi nima? U qanday yosh davriga ega? Voyaga yetmagan shaxs bu – 18 yoshga to‘lmagan hisoblanadi. Voyaga yetmagan shaxs deb, bu o‘z xatti – harakatlariga, biror bir harakatidan sodir bo‘ladigan hodisaga javob berolmedigan shaxsni aytamiz. Bunday yoshdagi shaxslar asosan balog‘at yoshiga yetmagan deb ham hisoblanadi. Jumladan, bu yoshdagi yoshlar o‘zlarining qilmishlariga to‘liq javob berolmaganligi tufayli ular uchun ota – onasi, ota – ona o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki qonuniy vakil javobgar hisoblanadi. Voyaga yetmagan shaxs huquqbuzarlik sodir qilganda ularning jazo turi huquqbuzarlik turlariga qarab belgilanadi. Endi huquqbuzarlikning belgilari va turlariga ko‘ra belgilanadi. Huquqbuzarlikning asosiy belgilari:

- jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy xavfli;
- huquqqa zid xarakterga ega;
- aybli qilmish;
- zararli oqibat keltirib chiqaradi;
- kishilarning erki va ongiga bog‘liq bo‘lgan holda, ular tomonidan harakat yoki harakatsizlik shaklida amalga oshadi¹.

¹ Davlat va huquq nariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2022. -210 bet

Yuqorida keltirilgan huquqbuzarlik belgilari muhim hisoblanadi. O‘zbekiston qonunchilik tizimi umuman xalqaro huquq sohasida ham huquqbuzarlikning turlari to‘rt guruhga bo‘linadi va bular: ma‘muriy, jinoiy, fuqaroviy va intizomiy huquqbuzarlikdir. Bularning har biri albatta huquqbuzarlik. Ularning yaxshi yomoni yo‘q. Lekin jinoyatning ham eng og‘ir va yengili bo‘lgani kabi huquqbuzarlik ham ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab yengil va og‘ir turlarga tasniflanadi. Huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan turi bu jinoiy huquqbuzarlik hisoblanadi. Ya‘ni jinoiy huquqbuzarlikda ayblilik darajasi, ijtimoiy xavfi katta – kichikligi va keltirgan zarar oqibati boshqa huquqbuzarlik turlariga ko‘ra ko‘proq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining “Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari” oltinchi bo‘limining 81 – moddasida voyaga yetmagan shaxslarning jazo tizimi keltirilgan. 81 – moddaga ko‘ra, a) jarima; a¹)majburiy jamoat ishlari; b)axloq tuzatish ishlari; v¹)ozodlikni cheklash; g)ozodlikdan mahrum qilish². Voyaga yetmagan shaxslar uchun jazoning boshqa turlarini yoki qo‘shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas. Jinoyat kodeksi bilan belgilab qo‘yilagnidek, jarima jazosining eng kam miqdori eng kam oylik ish haqining ikki baravari bo‘lib, qilmishning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab jarima miqdori yigirma baravarigacha bo‘lishi mumkin³. Voyaga yetmagan shaxslar ayrim xususiyatdagi ijtimoiy xavfli qilmishlari uchun majburiy jamoat ishlari belgilanadi. Bu jazo faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu jazo turi 60 soatdan 240 soatgacha bo‘lgan muddatda bo‘ladi. Majburiy jamoat ishlari voyaga yetmagan shaxsni sog‘lig‘i va ma‘naviy jihatdan rivojlantirishga zarar yetkazmasligi, eng muhimi o‘qish jarayonlarini buzmasligi kerak. Agar o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar tomonidan majburiy jamoat ishlarini bajarish muddati, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, olti oy davomida kuniga ikki soatdan oshmasligi, mahkumga bog‘liq bo‘lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa, bir yilgacha bo‘lgan muhlatga kuniga ikki soatdan oshmasligi kerak⁴. Axloq tuzatish ishlari voyaga yetmagan shaxslar uchun faqat mehnatga layoqatli shaxslarga tegishli bo‘ladi. Huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan shaxs bu jazo turi hech qayerda ishlamas, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o‘zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o‘tash tariqasida bir oydan bir yilgacha bo‘lgan muddatga tayinlanadi. Jinoyat kodeksining 84¹ – moddasiga ko‘ra voyaga yetmaganlar uchun asosiy jazo hisoblanadi va olti oydan ikki yilgacha muddatga belgilanadi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi voyaga yetmaganlar uchun eng og‘ir

² Bolalar uchun yuridik ensiklopediya – T:”Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2021 –y. 150- 151 bet.

³O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023

jazo hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar uchun bu jazo turi jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavfli qilmishning darajasiga ko'ra olti oydan uch yilgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan:

b) og'ir jinoyat – olti yilgacha;

v) o'ta og'ir jinoyat uchun - o'n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan:

b) og'ir jinoyat uchun – yetti yilgacha;

v) o'ta og'ir jinoyat uchun – o'n yilgacha muddatga tayinlanadi⁵.

Voyaga yetmaganlar uchun jazo tayinlashda ularning yoshi, turmush sharoiti va tarbiyasi va boshqa barcha umumiy jihatlar albatta e'tiborga olinadi. O'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar uchun jazo tayinlashda jinoyatlar majmui tariqasida jazo tayinlanganda eng ko'p miqdori o'n yilgacha bo'ladi. Lekin sodir etgan jinoyatlarining bittasi o'ta og'ir bo'lsa, o'n ikki yilgacha jazo tayinlanadi. Huddi shunday o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarga jazo tayinlanayotganda, jazo muddati eng ko'pi bilan o'n yilgacha bo'ladi. Agar jinoyatlarning bittasi o'ta og'ir jinoyat hisoblansa, o'n besh yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin⁶.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir qilganliklari uchun jazo turlari 5 ta hisoblanadi. Ularning har biri bilan yuqorida tanishdik. Milliy huquq tizimimizga ko'ra jinoyat yoshi o'n uch yoshdan o'n to'rtga o'zgargani bu jazo yoki boshqa majburlov choralari inson qadr – qimmatini kamsitish maqsadida emas, balki shaxs uchun tarbiya vositasi ekanligini yana bir dalilidir. Bu jazo tizimlari va turlari jinoyat sodir etgan shaxsga qilgan qilmishidan kerakli xulosa chiqarish va boshqa yangi jinoyat sodir etishini oldini olish uchun tayinlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023
2. Davlat va huquq nariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2022. -210 bet
3. Bolalar uchun yuridik ensiklopediya – T:”Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2021 –y.

⁵O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023

⁶ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023